

BOSHLANG'ICH SINFLARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Shoqosimova Zarifa Bobir qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ingliz tili o'qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion metodlari haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: aralash texnika, qiziqarli o'yinlar, boshlang'ich sinflar, zamonaviy innovatsion metodlar, pantomima.

Annotation

This article focuses on effective, modern, and innovative methods of teaching English to increase students 'interest in language learning in the primary grades.

Keywords: mixed techniques, fun games, elementary classes, modern innovative techniques, pantomime.

Аннотация

Данная статья посвящена эффективным, современным и инновационным методам обучения английскому языку для повышения интереса учащихся к изучению языка в начальных классах.

Ключевые слова: смешанные приемы, веселые игры, начальные классы, современные инновационные приемы, пантомима.

KIRISH

O'yin o'ynash – his-hayajonni, diqqatni, imkoniyatni, mujassamlikni, bilimli, kuchlibo'lishni talab qiladi. U mustaqil bir qarorga kelishlikka o'rgatadi. O'yin o'nayotganlarniyutish, g'alaba qazonishga intilish irodalari, xohishlari o'quvchilarning faoliyatini tezlashtiradi. O'quvchilar o'yinlarni ingliz tilida o'ynasagina ingliz tiliga qiziqadi, ham ingliz tilini o'rghanadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'yinni ingliz tilida o'ynatishni ta'limiy tomoni kuchli ekan. Shu sababdan ingliz tilida rolli o'yinlar o'ynatish keng qo'llanilmoqda. Inglizcha rolli o'quv o'yinlari o'quvchi uchun eng qiziqarli mashg'ulot, o'qituvchi uchun esa o'quvchining tinglab tushunishini, gapirishini, o'qishini, yozuvini faollashtirishda, til materiallarini o'zlashtirishda, mustahkamlashda eng yahshi mashqdir, bositadir. O'quvchilar o'yinlarni qiziqib o'ynaydilar, yutishga intiladilar, o'qituvchi ularorqali ta'lim – tarbiya beradilar.

O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapiraolarkanman, o'qiy olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yuta olarkanman deb rag'batlanadi, qiziqadi.

Metodika o'yinni vaziyatli mashq deb talqin qiladi. O'yin quyidagi metodik vazifalarnihal qilishga yordam beradi:

1. O'quvchilarini nutqni bajarishi uchun psixologik tayyorgarligini tashkil qiladi
2. O'quvchilarga til matiriallarini, nutq namunalarini ko'proq qaytarib qo'llashga tabiiy vaziyat, holat vujudga keltiradi.
3. O'quvchilar sharoitga, vaziyatga qarab mustaqil tayyorlanmagan nutq qilishga o'rghanadilar.

Til materiallarini amalda qo'llashni, tinglab tushunishni, gapirishni, o'qishni o'rgatishda, rivojlantirishda turli hil o'yin turlaridan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rghanadigan har qanday yoshdagি odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Til materiallarini qo'llashni faollashtirish malakalari uchun leksik, grammatik, fonetik va orfografik o'yin turlari qo'llaniladi. Yana ijodiy o'yin, mazmunli o'yin, taqlid qilish o'yin turlari bor.

Leksik o'yinlar: 1. O'qituvchi stol ustiga predmetlarni qo'yib, inglizcha aytadi va kim tez ola olsa, shu yutadi. 2. Bir o'quvchi bitta so'zni o'laydi, qolganlar

Is this a pen? Is this a book? deb so'raydi, o'quvchilar topa olmasa No, it is not, topishsa Yes, it is deb javob beradi. Shu o'yinni aksini qilib o'ynash mumkin. O'quvchilar bitta so'z o'laydi, bir o'quvchi Is this a pen? Is this a pencil? Deb so'raydi. O'quvchi esa Yesit is yoki No it is not deb javob beradi. O'yin o'ylangan so'zni topilishi bilan tugaydi. Leksik o'yinlarni turlari ko'p.

Grammatik o'yinlar muhim zarur grammatik tuzilmalarni qo'llashni o'rgatish, rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Bunday o'yinlarga ko'pincha to be, to have, may, must, can fe'llari, there is there are iboralari olinadi. O'yinlar ko'pincha musobaqa tarzida o'tadi, ularda boshlavchi va boshqaruvchilar bo'ladi. Grammatik o'yilarni tulari ko'p:

1. this is ani faollashtirish. O'qituvchi darsga kirib What is this? deydi, javob talab qiladi. Bir o'quvchi havob bergandan so'ng Oh, I am so tired! Who wants to be a teacher? Come Karima, you are a teacher. Ask questions! deydi. So'ng Karima o'qituvchi o'rnigao'qituvchi bo'lib savollarni so'raydi, o'quvchilar This is a pen, a book deb javob beradilar.

2. Where is my pen....? Ni ham shunday qilib o'yin o'ynatish mumkin.

Fonetik o'yinlar o'quvchilarni talaffuzini mashq qilirish, she'rlarni baland ovozdatafuz qilishga o'rgatishga o'rgatishda ishlatiladi. Bunda she'rlar o'quvchilar bilan oldinyodlanadi, so'ng yodda musobaqa qilib aytildi. Fonetik o'yinlarning turlari ham ko'p.

1. Kim {r}tovushi bor so'zlarni tez, to'g'ri talafuz qiladi, bunda 2 o'quvchi qatnashadi.
2. Kim [y] tovushi bor so'zdan ko'p topib tez, to'gri talafuz qiladi va yozadi.
3. She'r ayttirish kabilar.

Orfografik o'yinlar Bu o'yinlardan yozuvni o'rgatishda foydalaniladi. Bunday o'yinlarni ham turi ko'p bo'lib, men kuyidagilarini aytib o'tmoqchiman.

1. O'qituvchi 2ta o'quvchini qo'liga alohida qog'ozga yozilgan harflarni berib, "pencil" deydi, kim tez doskaga borib shu so'zni yasasa, u g'olib sanaladi.
2. Doskada so'zlarni bitta bosh va oxirgi harfini yozib to'ldirish.
3. Kim ko'p so'z yozish kabilar. Bu o'yinlar ham musobaqa tarzida o'tadi.

Hozirgi paytda ingliz tilini o'rgatishda rolli o'yinlardan keng foydalaniladi. Ular oldimizga qo'ygan maqsadga erishishda, qiziqtirishni orttirishda, darsga jalb qilishga salmoqli ijobiy yordam beradi. Shu sababli o'yinlarni yanada keng qo'llash maqluroqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni hozirgi kuda ingliz tilidan nutqini rivojlanadirish uchun qulay imkoniyatlar, shart-sharoitlar yetarli darajada.

Boshlang'ich sinfda o'qituvchi rahbarligida turi faoliyatlarda (o'yinlarda, mashg'ulotlarda, mehnatda) bir-birlari bilan nutqiy muloqatda bo'ladilar. Turli xildagi ijodiy va harakatlari o'yinlar, mashg'ulotlar, mashqlar, sayr va kuzatishlar – bularning hammasi bolalar hayotining mazmunini to'ldiradi. Bolalar nutqini rivojlanirishda rolli o'yinlarning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bu o'yinlar keng muloqot va fikralmashishda imkon yaratadi.

Nutq amaliyoti bolalar o'yinlarida, mashg'ulotlarda bir-biri bilan muloqotda bo'lishda katta ro'l o'ynaydi. Bolalarning o'zaro do'stona, samimiy aloqada bo'lishlari muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Agar bola nima bilandir band bo'lsalar, qandaydir qiziqarli mashg'ulotlarga, o'yinlarga ishtrok etsalar, u yerda hech qanday kelishmovchiliklar yokitushunmovchiliklar bo'lmaydi, balki o'quvchilar nutqining faol rivojlanishi uchun imkoniyat yaratiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning bir-birlari bilan bo'lgan o'zaro so'zlashuvlarini rag'batlantirib borishi, uyatchan bolalarni o'yinga, boshqa bolalar bilan so'zlashishga jalb qilib boorish kerak.

Bolalar nutqini rivojlanirishda eng zaruriy shartlardan yana biri nutq o'stirish bo'yicha ko'rgazmali qurollarning mavjudligidir. Bolalar nutqini rivojlanirish bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlarda turli xildagi didaktik materiallardan foydalaniladi. So'z bolalarongida ko'rgazmali obraz bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

O'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatish bir muncha qiyin bo'lib, bunda turli usul va uslublardan foydalanish ko'zlangan samara beradi. Bu borada "Oddiydan murakkabga" usulidan

foydalanish maqsaga muvofiqdir. Bu usul turkum o'yinlarni o'z ichiga oladi. O'yinlar orqali til o'rganish o'quvchini zeriktirmaydi, tilni osonlik bilan o'zlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi , ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lif tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin .

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .
3. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
4. Toliboboeva, S. J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATIONIN ENGLISH. ScienceandEducation, 1(SpecialIssue 2).
5. Толибобоева, Ш. (2020). Ingliz tilini o'qitishdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari. YoungScientist, 19(309), 581-582.
6. Juldasheva, N. N. (2020). Хорижий тилларни ўқитишида ахборот технологияларва инновацион методларнинг ўрни. Молодой ученый, (12), 332-333.
7. Ashirbaeva, A. (2020). POSITIVE TRAITS OF TEACHING LANGUAGE THROUGH LITERATURE. ScienceandEducation, 1(SpecialIssue 2).
8. Umirova, Z. (2020). IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. International Scientific Conference of Students and Young Scientists "FARABI ALEMI".